

MATEMATIKANING BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Abdullayeva Dilnoza

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talalabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematikaning boshlang'ich ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Unda matematika fani o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish kabi fundamental tafakkur jarayonlarini rivojlantirishdagi asosiy vosita ekani ilmiy va metodik manbalar asosida asoslab beriladi. Boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarning shakllanishi, o'lchov birliklari, vaqt, uzunlik, massa kabi amaliy hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish orqali bolalarning kundalik faoliyatga tayyorlanishi ko'rsatib o'tiladi. Maqola boshlang'ich ta'limda matematika fanining zamonaviy yondashuvlardagi o'rni va uning ta'lim jarayonidagi pedagogik ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim, fanlararo aloqadorlik, masala, o'lchov birliklari, intellektual, psixologik, tafakkur, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish.

Boshlang'ich ta'lim – bu bolaning ta'lim olish jarayonidagi birinchi va eng muhim bosqich bo'lib, uning keyingi bilim olishi, dunyoqarashi va shaxs sifatida shakllanishiga asos yaratadi. Aynan shu davrda o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqish, mustaqil fikrlash, axloqiy va ijtimoiy fazilatlar shakllanadi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar orqali bola atrof-muhitni anglaydi, nutqi rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o'rganadi va bilim olish jarayoniga moslashadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim – nafaqat akademik bilimlar, balki tarbiyaviy, psixologik va ma'naviy rivojlanish uchun ham muhim poydevordir. Boshlang'ich ta'limda matematika fani esa alohida o'rin tutadi. Matematika boshlang'ich sinflardanox puxta o'rgatilsa, o'quvchilar yuqori sinflarda murakkab mavzularni osongina tushunadi va mantiqiy fikrlash darajasi sezilarli darajada oshadi.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy maqsadi – o'quvchilarda elementar matematik bilimlar va ulardan amalda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Jumladan: arifmetik amallarni (qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish) bajarish; og'zaki va yozma hisoblash malakalarini rivojlantirish; o'lchov birliklari, vaqt, masofa va massa haqida boshlang'ich tushunchalarni berish; mantiqiy fikrlash va matematik nutq madaniyatini shakllantirish. Boshlang'ich ta'limda matematika bolada tartiblilik, diqqat-e'tibor va aniqlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. Bu

esa nafaqat matematikada, balki boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Matematikaning o'quvchi tafakkuri va intellektual rivojiga ta'siri natijasida o'quvchilarda quyidagi psixologik va intellektual ko'nikmalar rivojlanadi: mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyati, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish, xotira, diqqat va tafakkurning faollashishi, mustaqil fikrlash va izchil xulosa chiqarish. Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, boshlang'ich sinflarda matematika to'g'ri o'qitilishi bolalarda ijodiy fikrlash, aqliy rivojlanish va intellektual salohiyatning oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Matematikani o'rgatishni boshqa fanlar bilan bog'liqlikda olib borilsa, ya'ni texnologiya, fizika, informatika, tabiatshunoslik va hatto ona tili bilan ham o'quvchi bu fanlarni tushunishi va ularda muvaffaqiyat qozonishi shunchalik oson bo'ladi. Bunda matematik masalalarni hayotiy ko'nikmalar asosida yechishni o'rgatish muhim sanaladi. Masala orqali bola nimalarni o'rganishini ko'rib chiqamiz.

1. Dildorada 5 ta olma, Zilola esa undan 2 ta ko'p olma oldi. Zilolada nechta olma bor?

Yechish: $5 + 2 = 7$ ta olma.

Tafakkur rivojlanadi:

Sonlarni taqqoslash

Amallarni real hayot bilan bog'lash

2. Qutida 8 ta qalam bor. 3 tasi olingandan keyin nechta qalam qoldi?

Yechish: $8 - 3 = 5$ ta

Tafakkur rivojlanadi:

Sonni qisqartirish

3. Vaziyatni ko'z oldiga keltirish

3, 5, 7, ... Keyingi son qanday?

Yechish: Sonlar 2 taga oshib bormoqda, demak $7 + 2 = 9$

Tafakkur rivojlanadi:

Qonuniyatni aniqlash

Tahliliy fikrlash

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'lchov birliklarini o'rganish nafaqat matematik bilimlarni egallash, balki kundalik hayotda to'g'ri fikrlash, taqqoslash, baholash va mas'uliyat bilan qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'lchov birliklari — uzunlik, massa, vaqt, sig'im, harorat kabi tushunchalar — bola hayotida juda ko'p uchraydi va uning tafakkurini rivojlantiradi.

4. Oyshaning uyidan maktabgacha masofa 500 metr. U har kuni maktabga shu yo'ldan borib keladi. Oysha 5 kunda qancha masofani bosadi?

Yechish: $500 \times 10 = 5000$ metr (5 km).

5. Safina maktabga ketayotganda sumkasining og'irligi 3 kg edi. U magazindan 500 grammlı suv oldı va unı ham sumkasıga soldı. Endı Safınaning sumkası nechchı kg bo'ldı?

Yechish: $3 \text{ kg} + 0,5 \text{ kg} = 3,5 \text{ kg}$

6. Dars 45 daqiqa davom etadı. O'quvchılar 4 soat dars o'qıshları uchun nechı soat (daqiqa) kerak bo'ladı?

Yechish: $45 \times 4 = 180$ daqiqa (3 soat)

7. Sardor 1,5 litr suv ichdı. Agar har kuni shu miqdorda ichsa, 5 kunda nechchı litr suv ichadı?

Yechish: $1,5 \times 5 = 7,5$ litr.

8. Havı 0°C dan 15°C gacha ko'tarıldı. Nechı daraja issiq bo'ldı?

Yechish: 15°C ga ko'tarıldı.

Xulosa. Matematika bolaning tafakkurını rivojlantiruvchi, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarını shakllantiruvchi asosiy fanlardan birıdır. Aynan shu bosqıchda o'quvchılarga arifmetik amallar, o'lchov birlikları, vaqt, masofa, hajm kabi asosiy tushunchalar beriladı. Bu esa nafaqat keyingi matematika darslarını o'zlashtirish, balki kundalik hayotda ham matematik bilimlardan foydalana olish imkonını yaratadı.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Babayeva, M. A. (2025). Xalqaro baholash dasturlarining ta'lim tizimidagi ahamiyati. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(2).

2. Babayeva, M., & Abdullayeva, D. (2025). BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARIDA MANTIQUIY FIKRLASHNI MASALALAR YECHISH ORQALI RIVOJLANTIRISH. *Наука и технология в современном мире*, 4(3), 116-119.

3. Babayeva, M. (2024). TA'LIMDA FANLARARO ALIQADORLIKNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK SHARTLARI. "ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 2(10).

4. Toshova, S. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIKKA MEHR UYG'OTISH ORQALI SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(9).

5. To'xtasinov H., Berdiyev T. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" — Toshkent: TDPU nashri.

6. Karimova R. “Matematikadan didaktik materiallar” — Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

7. R. G‘anieva. “Boshlang‘ich ta’limda matematik kompetensiyalarni shakllantirish” — Metodik qo‘llanma.

8. G. Polya. “How to Solve It (Masalalarni yechish san’ati)” — Princeton University Press.

